

MEN RADIKALIZMGA QARSHIMAN

Zokirjanov Musallambek

Hidoya o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi

Ikkinchi bosqich talabasi.

zokirjanovmusallam609@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18183467>

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida jamiyat barqarorligi va tinchligiga jiddiy tahdid solayotgan radikalizm va ekstremizm muammosi tahlil qilinadi. Ayniqsa, yoshlar ongini noto'g'ri g'oyalar bilan zaharlash, diniy qadriyatlarni buzib talqin qilish orqali ularni haqiqiy islom mohiyatidan chalg'itish holatlari keng yoritiladi.

Maqolada radikalizmning diniy, siyosiy va mafkuraviy ko'rinishlari ochib berilib, uning jamiyatda totuvlik va bag'rikenglikka yetkazayotgan zararli oqibatlari ilmiy asosda ko'rsatib beriladi. Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar asosida islom dinining asl mohiyati tinchlik, mo'tadillik, adolat va mehr-oqibatga asoslanganligi keltiriladi. Maqolada yoshlarning radikalizmga qarshi kurashdagi o'rni, to'g'ri diniy bilim olish, kitobxonlikni rivojlantirish va axborot makonida hushyorlikni oshirish kabi muhim omillar alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Radikalizm, ekstremizm, yoshlar, diniy bag'rikenglik, mafkuraviy immunitet, islom dinining mohiyati, tinchlik, ma'rifat.

Bugungi globallashuv davrida butun dunyo tinchlik, totuvlik va barqarorlik sari intilayotgan bir pallada, ayrim kuchlar radikalizm va ekstremizm kabi buzg'unchi g'oyalar orqali insoniyatga xavf tug'dirmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongini zaharlash, ular orasida buzg'unchi g'oyalarni tarqatish va ularni haqiqiy din mohiyatidan chalg'itish harakatlari avj olmoqda. Men shu bois ongli bir fuqaro, xususan yosh avlod vakili sifatida va O'zbekiston yoshlari nomidan ishonch bilan men radikalizmga qarshiman deb aytaman. Chunki yurtimiz tinchligi, dinimiz pokligi va kelajagimiz porloqligi bevosita buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetimizga bog'liq hisoblanadi.

Radikalizm bu — haddan oshgan, murosasiz qarashlar asosida jamiyatga, millatga, din va insoniyatga tahdid soluvchi fikrlar tizimi bo'lib, u ko'pincha diniy, siyosiy yoki mafkuraviy niqob ostida amalga oshiriladi. Ekstremistik qarashlar jamiyatdagi totuvlikni izdan chiqarish, beqarorlik va dushmanlik urug'ini sochish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa diniy radikalizm — islom dinining asl mohiyatiga zid bo'lgan yondashuvdir.

Bunday zararli oqimlar asosan diniy g'oyalarni noto'g'ri talqin qilish orqali odamlarni chalg'itadi.

Aslida esa, islom dini radikalizm va buzg'unchilikni mutlaqo rad etadi. Qur'oni karim va hadisi shariflarda mo'min inson mo'tadil bo'lishi kerakligi haqida bir qancha oyatlar bo'lib, g'uluv(haddan oshish) esa qattiq qoralangan.

Vaholanki, Payg'ambar (alayhissalom) va sahobiyalar ham Makka davrida Alloh taoloning ushbu ko'rsatmasi asosiga ko'ra ish tutganlar:

“(Ey Muhammad), Rabbingizning yo'liga (diniga) hikmat va chiroyli nasihat bilan da'vat qil! Ular ila eng go'zal uslubda mujodala et !” (Nahl, 125).

Yana bir boshqa oyatda esa shunday marhamat qiladi:

“Ey imon keltirganlar! Alloh sizga halol qilgan pok narsalarni harom qilmang. Albatta, Alloh haddidan oshuvchilarni sevmas.” (Moida, 87).

Mulohaza qilinsa, ushbu oyatda Alloh taolo o'zi halol qilgan narsadan odamlarning o'zlarini olib qochishini “haddan oshish” deb ta'riflaydi. Bu esa ruhiy va moddiy tabiatdagi odil yo'ldan chetga chiqish demakdir. Bu ikki oyat islom dinining haqiqiy mohiyatini – tinchlik, mehr-oqibat, muvozanat va adolatni targ'ib qilishini yaqqol ko'rsatadi.

Butun islom ummatiga go'zal namuna bo'lgan Rasulimiz alayhissalom esa: **“Ey odamlar diyingizda haddan oshishdan saqlaninglar, chunki haddan oshishlik sizdan avvalgi ummatlarni halokatga olib bordi”** dedilar. (Ibn Moja -3029)

Radikalizm nafaqat diniy sohada, balki siyosiy, mafkuraviy va ijtimoiy yo'nalishlarda ham paydo bo'lmoqda. Bu holat tinchlikparvar, ko'p millatli va bag'rikeng bo'lgan jamiyatlarga ulkan xavflar tug'dirmoqda. Ammo Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda yoshlar orasida sog'lom dunyoqarash, milliy va diniy qadriyatlarni qadrlash, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Azaldan ulamolarimiz, ustozlarimiz tomonidan islomning asl mohiyati – tinchlik, mehr-shafqat, sabr-toqat asosida ekani ta'kidlab kelinmoqda. Shu bois har bir yosh avlod o'z diniy bilimini mutaxassis ustozlardan, rasmiy manbalardan olishi shart va zarurdir. Bilim - bu qalbning quroli, ammo noto'g'ri bilim esa -bu halokat sababi hisoblanadi.

Bugungi biz yoshlar radikalizmga qarshi quyidagi yo'llar bilan kurashishimiz kerak deb bilaman:

1. To'g'ri diniy bilim olish – ulamolar va ishonchli manbalarni asos qilish.
2. Kitobxonlikni oshirish – tafakkurni kengaytiradi, aldanmaslikka yordam beradi.
3. Ijtimoiy tarmoqlardagi shubhali targ'ibotlardan ehtiyot bo'lish – ayniqsa norasmiy ijtimoiy tarmoq manbalaridan.
4. Tinchlik va bag'rikenglikni hayotga tadbiq qilish – o'z atrofimizda mehrli muhit yaratish.

Yurt tinchligi – bu eng katta ne'mat. Biz yoshlar ushbu ne'matni asrash uchun nafaqat radikalizmga qarshi kurashishimiz, balki o'zimiz namuna bo'lishimiz lozim. Bizning O'zbek xalqi azaldan bag'rikeng, musulmonchilikni ehtirom qilgan, lekin hech qachon zo'ravonlik va haddan oshish yo'lini tan olmagan xalqdir.

Radikalizm – bu jaholat, zo'ravonlik va adashganlikdir. Islom esa-ma'rifat, tinchlik va haqiqat yo'lidir. Shunday ekan, hozirgi tahlilali bir zamonda har bir ongli yosh tinchlikni qadrlashi, ilmga egallashga bor imkoniyati ila harakat qilishi va shu orqali yot g'oyalarga qarshi turib hech qachon aldanmasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim, Nahl surasi 125-oyat, 14-juz, 281-bet. / Moida surasi 87-oyat, 7-juz, 122-bet.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja, Sunani Ibn Moja, 504-bet, “ Dar al-siddiq”, “Muassasatur Rayyan”, Bayrut nashriyoti, 2010.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, “Olam va Odam, Din va Ilm” 152-bet, Hilol Nashr, Toshkent 2025.